# Hurmatli talabalar va magistrantlar DIQQATIGA!

"Respublika komissiyasining 2020 yil 12 noyabrdagi yigʻilishi qaroriga muvofiq barcha oliy taʼlim muassasalarida joriy yilning 16 noyabridan oliy taʼlim muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va reja-grafik asosida oʻquv jarayonini anʼanaviy shaklda davom ettirish belgilandi" nomli xabar Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi rasmiy telegramm sahifasida (https://t.me/eduuz/3679)eʼlon qilingan edi. Xabarda aytib oʻtilganidek har bir oliy taʼlim muassasasi oʻz imkoniyati va sharoitidan kelib chiqqan holda chora-tadbir va reja-grafik ishlab chiqishi belgilangan.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsilash muhandislari institutida ishlab chiqilgan va rektorat tomonidan tasdiqlangan chora-tadbir va reja-grafikga asoslanib. Joriy yil 16 noyabr haftaning dushanba kunidan faqat birinchi bosqich va 4-bosqich talabalarga hamda 1-2-bosqich magistrantlarga oʻqishning anʼanaviy shakli boshlanadi. 2-bosqich va 3-bosqich talabalari uchun onlayn darslar davom ettiriladi.  Demak bakalavriat 1-bosqich va 4-bosqich talabalar, magistratura 1-bosqich va 2-bosqich magistrantlar 16-noyabrda toʻliq institutga kelishi lozimligi belgilanadi. Anʼnaviy darslar boʻyicha qoʻshimcha maʼlumotlar fakultet rahbariyatlari tomonidan beriladi.